

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

P.S.Otaqulov

Geografik nomlarni o'rganishga ijtimoiy-ekologik yondashuv 92

B.M.Dehqonov

Andijon viloyati ekin yerlari monitoringi va uni baholash 97

X.Sh.Djo'rabyevo

An'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishida geografik omillarning o'rni 101

ILMIY AXBOROT**M.K.Usmonaliyeva**

Chor Rossiyasi hukmronligi davrida turkiston o'lkasida milliy matbuotning vujudga kelishi 105

O.N.Fozilova

Oybekning bolalarga atalgan hikoyalarda qahramon talqini 108

J.J.Mamatisakov

Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashtirishning innovatsion - pedagogik modeli 113

N.B.Yuldasheva

Ingliz va o'zbek tillari matnlaridagi paremiyalarni tadqiq etishning muxim jihatlari 121

G.O.Abdujalilova

Ekspozitsiya va uning badiiy-estetik funksiyasi 124

X.Z.Umarova

Epistolary lines: the transformative power of letters in saul bellow's novel «Herzog» 127

D.Hakimova

Yosh voleybolchilarning maxsus jismoniy sifatlarini rivojlantirish 130

G.M.Alamov

Xalq o'yinlari va milliy bellashuvlarning o'quvchi-yoshlarni tarbiyalovchi muhim omil sifatidagi ahamiyati 135

A.K.Xudayberdiyev, M.J.Usmonova

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yagona to'g'ri yo'li-ta'lim sifatini oshirish 139

S.R.Xoliqov

Yangi O'zbekiston yoshlарining ma'nавиати va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullari 143

M.A.Aliева

Неомифологизм в творчестве дмитрия сергеевича мережковского 147

A.Y.Ergashev

Yangi O'zbekistonda pedagogning maqomi: ijtimoiy-falsafiy tasnifi va o'ziga xos xususiyatlari 152

Z.X.Oxunova

Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo tushunchalarining o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy-antropologik mazmuni 155

X.J.Isomiddinov

Yoshlar tafakkurini rivojlantirishning tarixiy-falsafiy jihatlari 158

R.D.Mustayev

Vatanparvarlik tushunchasining tarixiy-falsafiy mohiyati 161

B.I.Muxtoraliyev

Ilk hikoyalardagi ijodiy o'ziga xoslik 165

D.S.Abduqodirov

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari 171

M.M.Azizov

Methodology of optimizing sports and health programs through scandinavian walking 174

A.U.Xamidjanov

Yuqori malakali kurashchilarni vazn-bo'y ko'rsatkichlarini model xususiyatlari o'rganish asosida yosh erkin kurashchilarni saralash va yo'naltirish metodikasi 181

G.T.Dadamirzayeva

Inson salomatligi va ruhiyatiga musiqaning ta'siri 191

**AN'ANAVIY SUVDAN FOYDALANISH MADANIYATINING SHAKLLANISHIDA
GEOGRAFIK OMILLARNING O'RNI**

**РОЛЬ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ФОРМИРОВАНИИ ТРАДИЦИОННОЙ
КУЛЬТУРЫ ВОДОПОЛЬЗОВАНИЯ**

**THE ROLE OF GEOGRAPHICAL FACTORS IN THE FORMATION OF TRADITIONAL
WATER USE CULTURE**

Djo'raboyeva Xilola Shuhratovna¹

¹Farg'ona davlat universiteti geografiya kafedrasи doktoranti

Annotatsiya

Har qanday jamiyatning tarixiy taraqqiyotida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa omillar bilan bir qatorda, geografik omillar ham muhim rol o'yunaydi. Keyingi yillarda jahon hamjamiyati va iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari, tabiat komplekslari va geotizimlarida antropogen yukning ortib borishi geografik omilning jamiyat taraqqiyotidagi rolini o'rganish dolzarbligini yanada oshirmoqda. Mazkur maqolada jahon miqyosida suvdan foydalananish madaniyatining shakllanishida geografik omillarning o'rni alohida e'tibor qaratilgan.

Аннотация

Помимо политических, социальных, экономических и других факторов, важную роль в историческом развитии любого общества играют географические факторы. В последние годы возрастающая антропогенная нагрузка на тенденции развития мирового сообщества и экономики, на природные комплексы и геосистемы повышает актуальность изучения роли географического фактора в развитии общества. В данной статье основное внимание уделяется роли географических факторов в формировании культуры водопользования в мировом масштабе.

Abstract

In addition to political, social, economic and other factors, geographical factors also play an important role in the historical development of any society. In recent years, the increasing anthropogenic pressure on the development trends of the world community and the economy, on natural complexes and geosystems, increases the relevance of studying the role of the geographical factor in the development of society. This article focuses on the role of geographical factors in formation the culture of water use on a global scale.

Kalit so'zlar: arid mintaqalar, geografik omillar, gidrologik omil, tabiiy omillar, iqtisodiy-ijtimoiy omillar, iqlim, madaniyat, relyef, suvdan foydalananish madaniyati, sivilizatsiya

Ключевые слова: аридные зоны, географические факторы, гидрологический фактор, природные факторы, экономико-социальные факторы, климат, культура, рельеф, культура водопользования, цивилизация

Key words: arid zones, geographical factors, hydrological factor, physical factors, economic and social factors, climate, culture, relief, culture of water use, civilization

KIRISH

Geografik omillar turli tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar (iqlim, relyef, tuproq, suv va boshqalar)ning murakkab majmuasi bo'lib, V.A.Anuchin ta'biri bilan aytganda, "jamiyat rivojlanishining sabablarini emas, balki ushbu taraqqiyot sharoitlarini belgilaydi. Geografik omillarning ta'sirisiz nafaqat rivojlanish, balki insoniyat jamiyatining mavjud bo'lishi ham mumkin emas" [1,325]. Geografik omillarning ta'sir belgilari aholining hududiy joylashuvi, turmush tarzi, xo'jalik tarmoqlarining tarkibi, joy nomlari va umuman, madaniyatida o'z aksini topishi keyingi yillardagi etnologiya, tarix va falsafaga doir ilmiy nashrlarda ham e'tirof etilmoqda [3, 6, 8, 11].

Mazkur maqolaning **maqsadi** jahondagi qurg'oqchil mintaqalarda yashovchi mahalliy xalqlar tomonidan yaratilgan, asrlar davomida tabiatga moslashish yo'naliishida takomillashib borib, mintaqalar farovonligini ta'minlagan an'anaviy suvdan foydalananish madaniyatining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik-geografik jihatdan samarali tomonlarini o'rganishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Suvdan foydalananish madaniyati umumiy madaniyatning bir qismi sifatida hududiy xususiyatga ega bo'lib, "geografik omilning keng miqyosdagi ta'sirini boshdan kechiradi, makon jihatdan farqlanadi, o'ziga xos ko'rinishlarda tashkil etiladi va immanent hududiy shakllarda rivojlanadi" [7,4]. Bu madaniyatning shakllanishi tabiiy (relef, iqlim, tuproq, suv, o'simlik va b.) va

ijtimoiy-iqtisodiy (demografik) geografik omillarning majmuaviy ta'siri ostida, Yer yuzasida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan muayyan hududda yuz beradi. Ya'ni, suvdan foydalanish madaniyatiga ta'sir etuvchi eng birinchi omil joyning geografik o'rnidir. Chunki boshqa omil (iqlim, relyef, suv, tuproq, o'simlik va b.)larning shakllanishi ham ko'p jihatdan hududning geografik joylashuviga bog'liq. Nemis geografi A.Gettner ta'kidlaganidek, Yer yuzasidagi har bir hodisa uni Yerning boshqa qismlariga nisbatan tutgan o'rnini belgilash orqaligina tushunarli bo'ladi [4].

Suvdan foydalanish madaniyatni shakllanishining tarixiy ildizlari eramizdan avvalgi VI-III ming yilliklarda vujudga kelgan eng ko'hna madaniyat o'choqlari - qadimgi Mesopotamiya, Misr, Xarappa va Xitoy sivilizatsiyalariga borib taqaladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Jamiyat taraqqiyotida geografik omillarning roli borligi o'z davrida ko'pchilik olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Rus geografi va sotsiologi L.I.Mechnikov (1838-1888) geografik omillarning antik madaniyatlar rivojlanishidagi o'rnini "Sivilizatsiya va buyuk tarixiy daryolar. Zamonaviy jamiyatlar rivojlanishining geografik nazariysi" (1898) nomli asarida atroflicha yoritib berdi. Uning yozishicha, sivilizatsiyalarning vujudga kelishida hududning geografik o'rni va iqlimi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan: "O'simlik va hayvonot dunyosi rivojlanishi uchun zaif imkoniyat taqdim etadigan ikki qutb oldi mintaqasining geografik o'rni va iqlimi bu yerda kuchli ijtimoiy tashkilotlarni shakllanishiga imkon bermadi... Boy flora va faunaga ega bo'lsada, issiq mintaqaga hozirga qadar ham jahon tarixida muayyan madaniyat o'chog'i sifatida nufuzli o'ringa ega emas. ...Buyuk tarixiy madaniyatlar faqat shimoliy mo'tadil mintaqada to'plangan" [9. c.36]. L.I.Mechnikovning fikriga ko'ra, qadimgi sivilizatsiyalar shimoliy kenglikning 200-400 parallellari oralig'idagi yirik daryolar bo'yalarida vujudga kelgan: "ularning shimoliy chegarasi 400 shimoliy kenglikka, janubi esa deyarli Saraton tropikiga to'g'ri keladi. Shimoliy kenglikning 300 parallelbu parallelogrammning o'rta o'qini tashkil qilib, antik sivilizatsiyalarning har birini kesib o'tadi" [9. c.101]. Shuningdek, L.I.Mechnikov qadimda Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi berk havzada yuqorida sanab o'tilgan antik sivilizatsiyalardan tubdan farq qiluvchi, mustaqil sivilizatsiya paydo bo'lganligiga to'xtalib, quyidagilarni yozadi: "Panjobda oriylar sivilizatsiyasi paydo bo'lishidan oldin Hindukush tog'lari bilan Kaspiy dengizi o'rtasida joylashgan, dengizga chiqish imkoniyati bo'limgan ikki yirik daryo havzasida o'z sivilizatsiya markaziga ega mamlakat bor edi" [9. c.111].

Nemis tarixchisi va sotsiologi K.A.Vittfogel (1886-1988) o'zining "Oriental despotism" (1957) asarida dehqonchilik ishlari batamom sug'orishga asoslangan antik sivilizatsiyalar daryolarni boshqarish, sug'oriladigan yerlarni nazorat qilish hamda tartibga solish zarurati natijasida vujudga kelganligini ta'kidlaydi. Uning yozishicha, yog'ingarchilik yetarli bo'lgan hududlarda suv qishloq xo'jaligi uchun unchalik muhim ahamiyat kasb etmaydi, ammo qurg'oqchil hududlarda irrigatsiya tizimini tashkil etish faqat ommaviy uyushgan mehnat orqali amalga oshirilishi mumkin edi. Bu esa "gidravlik jamiyatlar"ning shakllanishiga olib keldi. K.A.Vittfogelning fikriga ko'ra, bunday hududlarda sug'orma dehqonchilik qilish uchun "bir nechta omillar o'zaro mos kelishi kerak: madaniy o'simliklar, unumdar tuproq, iqlim sharoiti va qishloq xo'jaligiga to'sqinlik qilmaydigan relif" [14. p.90].

Suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan geografik omillardan yana biri relyefdир. X.A.Axmedovning yozishicha, sug'orishda relyef qiyaligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, "2-4° dan tik bo'lgan joylar sug'orilganda, tuproq yo'qotilishi 20-50 t/ga ni tashkil etadi", ... relyef notekisligi tufayli suv iste'moli 20-30%ga oshadi" [2. c.25. c.200]. Ko'hna sivilizatsiyalar paydo bo'lgan hududlarning yer usti tuzilishiga nazar tashlasak, dengiz tomon pasayib boruvchi o'ziga xos relyefga ega plato va tog' oldi tekisliklaridan iborat ekanligini ko'rish mumkin. Mazkur hududlarning odamlar tomonidan o'zlashtirilishi dastlab tog'oldi yoki platolar qismidan, daryolarning o'rta oqimlaridan boshlangan. Jumladan, Armaniston yassi tog'ligi, Zagros tog'lari va Suriya cho'llari o'rtasida joylashgan qadimgi Mesopotamiya hududi Dajla va Furot daryolari vodiysi bo'ylab Fors ko'rfazi tomon pasayib boruvchi tabiiy qiyalik (3-40)ga ega. Bu yer relyef va iqlim sharoitiga ko'ra, bir-biridan keskin farq qiladigan Yuqori (Shimoliy) va Quyi (Janubiy) mintaqaga bo'linadi. Yuqori Mesopotamiya (Jazira) balandligi 300-500m gacha bo'lgan tog'oldi tekisliklardan tashkil topgan. Quyi Mesopotamiya esa allyuvial tekisliklardan iborat bo'lib, balandligi 100m dan oshmaydi. Bu yerda dastlabki aholi maskanlari (Sippar, Nineviya, Assur, Bobil va b.) Yuqori Mesopotamiyadagi yog'ingarchilik miqdori yetarli bo'lgan daryo vodiylarida eradan avvalgi

GEOGRAFIYA

VI ming yillikda vujudga kelgan [5]. Eradan avvalgi IV ming yilliklarga kelib, mahalliy dehqonlar tomonidan to'g'on va dambalarga ega ko'p sonli kanallar tizimining yaratilishi bilan Quyi Mesopotamiyadagi hosildor tekisliklar o'zlashtirila boshlandi. Har bir magistral kanal bo'ylab lentasimon joylashgan, kanalni boshqaradigan shahar-davlatlar tashkil topdi. Tog' oldi va tog'li hududlarda sug'orish suv oqimlarini kerakli hududga yo'naltiruvchi to'g'onlar yordamida amalga oshirilgan bo'lsa, tekisliklarda irrigatsiya dehqonchiligi suv toshqinlari va yirik sug'orish tizimlarini tartibga solish, drenajlash ishlariga asoslangan.

Qadimgi Misr sivilizatsiyasini "in'om" etgan Nil daryosi vodiysi relyef nuqtai nazaridan Yuqori, O'rta va Quyi mintaqalarga bo'linadi. Yuqori va O'rta Nil vodiysi Sharqiy Afrika yassi tog'ligiga to'g'ri keladi. Quyi Nil esa Sudan pastekisligi va Misr cho'llaridan iborat. Daryoning vaqtiga bilan toshishi tufayli kengligi 4 km dan 30 km gacha bo'lgan tor vodiya dehqonchilik uchun yaxshi sharoitlar vujudga kelgan. Nil vodiysining o'zlashtirilishi dastlab daryo tog' va platolardan tekislikka oqib chiqib, oxirgi Asvon ostonasini hosil qilgan hududlar (Yuqori Misr)dan boshlangan. Bu yerda eradan 3000 yil oldin Asvon, Abidos, Luksor va boshqa shaharlar paydo bo'ldi [5].

Xarappa sivilizatsiyasi eradan oldingi VI ming yillikda Hind daryosining beshta yirik irmog'i (Jelam, Chinab, Ravi, Bias va Satlej) birlashadigan, janubi-g'arbda Arabiston dengizi tomon pasayib boruvchi Hind vodiysida vujudga keldi. Vodiy yer ustti tuzilishiga ko'ra ikki qismidan iborat: shimoliy balandroq qismi Panjob tekisligi deb atalib, dengiz sathidan 350m balandda joylashgan. Hind pastekisligi deb ataladigan janubining balandligi esa 150m. Ma'lumotlarga ko'ra, bu hududlarning odamlar tomonidan o'zlashtirilishi dastlab Panjob tekisligi (Rakxigarxi, Xarappa, Moxenjo Daro)dan boshlangan.

Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasi eramizdan avvalgi VI ming yillikda Xuanxe daryosi vodiysida, Buyuk Xitoy tekisligining shimolda Yanshan, g'arbda Tay-xan-shan, janubda Sin-lin, Tun-bay-shan kabi tog'lar bilan tutashgan tog'oldi platolarida Shan-In davlatining paydo bo'lishi bilan boshlandi. Bu yerdagi dastlabki aholi maskanlari Loyan, Xandan, Chanan, Chejnou kabilar Xuanxe daryosining o'rta oqimlarida vujudga keldi.

Rus tarixchi N.I.Falkovskiy (1895-1952) madaniyat, jumladan, suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishida hudud relyefi va suv bilan ta'minlanganlik darajasining ta'siri borligini quyidagicha izohlaydi: "Qadimgi Bobil o'z kanallari bilan, Rim - akveduklari bilan, Fransiya esa Marlidagi suv ta'minoti va Versal favvoralari bilan zamondoshlarini hayratda qoldirdi. Tabiiyki, Rossiyada Bobildagi kabi qadimiy kanallar yo'q, shaharlar ham akveduklarga muhtoj emas, bizning tekis va suvg'a boy hududimiz sharoitida ularning texnik va iqtisodiy jihatdan befoyda ekanligi aniq" [12. c.29.]

Suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan yana biri hududning suv bilan ta'minlanganlik darajasi hisoblanadi. L.I.Mechnikovning fikricha, qadimgi sivilizatsiyalar daryo tizimiga bog'liq holda vujudga kelgan: "Xuanxe va Yanszi Xitoy sivilizatsiyasi paydo bo'lgan va rivojlangan hududni sug'oradi; Veda madaniyati Hind va Gang daryosi havzalaridan nariga o'tmad; Ossuriya-Bobil sivilizatsiyasi Mesopotamiya vodiysining ikki hayotiy arteriyasi bo'lgan Dajla va Furot qirq'oqlarida paydo bo'ldi; nihoyat, Qadimgi Misr, Gerodot ta'kidlaganidek, Nilning "in'omi"dir. ...qadimiy madaniyatlar qatoriga Oksus va Yaksart bo'ylarida vujudga kelgan sivilizatsiyani ham qo'shish mumkin" [9. c.85].

Mesopotamiyada sivilizatsiyalarning vujudga kelishi ko'p jihatdan Dajla va Furot daryolari bilan chambarchas bog'liq. Bu daryolar kuz-qish oylarida Yuqori Mesopotamiyaga yoqqan kuchli yomg'irdan, bahorda Armaniston tog'ligidagi qor va muzlarning erishidan to'ynadi. Har ikki daryo aprel-may oylarida toshib, pastekislikka loyqa, qum, shag'al kabilarni oqizib keladi. Iyunda issiqlikning keskin ortishi va qurg'oqchil davr boshlanishi bilan toshqin suvi bug'lanib, tuproqning sho'rlanishiga sabab bo'ladi [10. C.14-21]. Bu o'z navbatida hosildorlikning pasayishiga, bir muncha vaqt o'tgach esa yangi ekin maydonlarini o'zlashtirish, kanallar qazish, va nihoyat, yangi shahar qurish ehtiyojini tug'ilishiga olib keladi.

Qadimgi Misrda suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishi Nil daryosi bilan bog'liq. Daryo katta havzaga ega bo'lib, bir nechta iqlim zonasidan oqib o'tadi. Bu esa uning suv rejimini mavsumlarga qarab keskin o'zgarib turishida aks etadi. Nil toshqinlariiga Abissin tog'laridagi qor erishi va Markaziy Afrikaning Buyuk ko'llar mintaqasidagi tropik yomg'irlar sabab bo'ladi [5].

Mesopotamiyada kanallar va to'g'onlar birinchi navbatda drenajlash uchun mo'ljallangan bo'lsa, Nil vodiysida shakllangan havzaviy sug'orish tizimi ekish davrida dalalarda suvni imkon qadar uzoq vaqt (20-60 kungacha) ushlab turish uchun mo'ljallangan edi. Dajla va Furotdan farq qilib, Nil toshqinidan keyin yer maydonlarida sifatli il qoladi, ular tuproq bilan aralashib, ekinlar hosildorligini oshiradi. Qadimgi misrliklar daryo vodiysi bo'ylab, o'ziga xos havzaviy sug'orish tizimlarini yaratdilar. Nil toshqini arafasida daryo qirg'oqlaridan qisqa kanallar qazilib, toshqin suvi maxsus havzalarga yo'naltirilgan, u yerdan esa dalalarga tarqatilgan. Loy o'rashgach, toshqin suvi drenaj kanallari orqali yana daryoga qaytarilgan. Qaytarilgan suv tuproqni yuvib, uni sho'rlanishdan himoya qilgan, dalalarda qolgan il ikki oy davomida namlikni saqlab qolish imkonini bergen. Suv oqimini va uning kanallar bo'ylab tarqalishini nazorat qilish uchun maxsus to'siqlar (shlyuzlar) yaratilgan. Suv kam bo'lgan vaqtda daryo vodiysidan yuqorida joylashgan dalalarga suv chiqarish uchun shaduf va sakkiydan foydalanilgan.

Nil toshqini vaqtini bashorat qilish va ko'lamenti baholash zarurati qadimgi Misrda kalendarning paydo bo'lishiga olib keldi. Unda yil uch mavsum - Axet (toshqin), Peret (o'rim), Shemu (qurg'oqchilik) va 12 oyga bo'lingan. Vaqtini belgilash uchun quyosh va suv soatlari (klependralar)dan foydalanilgan. Miloddan avvalgi IV ming yillikda misrliklar nilomerni ixtiro qildilar. U dehqonlarga nafaqat Nil toshqini vaqtini, balki toshqin hajmini ham bashorat qilishga yordam bergen. Nilomer natijasiga qarab dehqonlarga soliq miqdori belgilangan [13]. Xarappa yoki qadimgi Hind sivilizatsiyasining shakllanishi Hind daryosi bilan chambachas bog'liq. Hind daryosi Tibet tog'laridagi qor va muzliklardan boshlanib, Himolay tog'larini kesib o'tadi va Panjob tekisligiga unumdon il olib keladi. Bu yerda unga beshta yirik daryo - Jelam, Chinab, Ravi, Bias va Satlej quyiladi. Panjobda Havo haroratining yuqoriligi va daryo toshqinlari Panjobda ekinlardan yiliga ikki marta hosil olish imkonini beradi.

XULOSA

Yuqoridagi tahliliy analizdan ko'rinish turibdiki, dunyo miqyosida suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishiga geografik omillarning shubhasiz ta'siri mavjud. Bu omillardan geografik o'rIN, iqlim, relef, suv kabilar har bir mintaqada alohida o'ziga xos suvdan foydalanish tizimi va unga xos bo'lgan madaniyatni shakllanishiga sabab bo'lgan. Arid iqlimli hududlarda suvdan foydalanishning asosiy turi sifatida sug'orishning turli usullari o'ylab topilgan bo'lsa, geografik omilning tabiatdan foydalanishning bu turiga ehtiyoji yo'q hududlarda suvdan maishiy maqsadlarda foydalanish yoki favorolar orqali havoni sovitish madaniyati shakllangan. ayrim hududlarda esa tabiatning bu ne'matidan foydalanish usuli oddiy iste'mol bilan cheklanib qoltinganligini ko'rish mumkin. Dunyodagi suvdan foydalanish madaniyatini tahlili asosida chiqargan xulosalarimiz bo'yicha aytish mumkinki, bu madaniyatning shakllanishida Markaziy Osiyo mintaqasi jahon miqyosida alohida o'ziga xos, takrorlanmas o'rinni egallaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Анучин В.А. Географический фактор в развитии общества. М.: Мысль, 1982.-334с.
2. Ахмедов Х.А. Осушительные мелиорации./Учеб. для вузов. Т.: Ўқитувчи", 1974. с. 215.
3. Ashirov A. Etnologiya/oquv qo'llanma - Toshkent: «Yangi nashr», 2014. - 544 b.
4. Геттнер А. География: ее история, сущность и методы. Пер. с нем. Е.А.Торнеус. М.: 1930. с.416.
5. Гуляев В.И. Шумер. Вавилон. Ассирия: 5000 лет истории. М.: Алетоия, 2004.
6. Гринин Л.Е. Природно-географический фактор в аспекте теории истории/ Философия и общество. №2. 2011. С. 168-198.
7. Дружинин А.Г. Теоретические основы географии культуры. Ростов-на-Дону: из-во СКНЦВШ, 1999. - 151 с.
8. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. Т.: Ўқитувчи, 1994.-320 б.
9. Мечниковъ Л.И. Цивилизация и великия историческая реки. Географическая теория развития современных обществъ. (перевод с французского М.Д.Градецкаго). С.Петербургъ, 1898.- 176с.
10. Саинов М.П., Саинова, Н.П. Гидротехника в древнем Междуречье./ Вестник МГСУ. М.: 2009. №3. С.14-21.
11. Этнология: Учебник / Г.Т.Тавадов. 2-е изд. - М.: «Дашков и К°», 2016.-408 с.
12. Фальковский Н.И. История водоснабжения в России. М.; Л., 1947. с.29.
13. Budge, E. A. Wallis The Nile Notes for Travellers in Egypt. Лондон, 1895. 472р.
14. Wittfogel K.A. Oriental Despotism. New Haven, CT: Yale University Press, 1957.